

OILAVIY MUHIT BARQARORLIGINING BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**Jabborov Xazrat Xusenovich****Psixologiya fanlari doktori (DSc)****Saparova Munisa Baratovna****Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti****Psixologiya mutaxassisligi magistranti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14752377>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy muhit barqarorligining oilada voyaga yetayotgan farzand psixologiyasiga ta'siri yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Bola psixologiyasi, oila, oilaviy munosabatlar, oilaviy muhit, ijtimoiylashuv.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, tasavvuri va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili muhiti bo'lib hisoblanadi. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar ham inson qalbi va ongiga dastavval oila muhit orqali singib boradi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати va ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Hukumatimizning oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy funktsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyalashdagi nufuzini oshirishga ko'maklashish hamda yosh er-xotinlarning moddiy hamda maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq dasturiy tadbirlari mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etilishini ta'minlamoqda. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek; «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, vatan tinch bo'ladi». Oila tuzilishi turli xil ota-onalar resurslari orqali bolaning farovonligiga ta'sir qilishi mumkin: ruhiy salomatlik, munosabatlar sifati, ota-onalar sifati va ota-onaning ishtiroki. Har bir oilada voyaga yetayotgan farzand tarbiyasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Farzand psixologiyasiga oilaning tarkibi ham o'z ta'sirini ko'rsatishi fanda o'z isbotini topgan. Oila tuzilishiga kelsak, an'anaviy oilalar, tuzilishiga ko'ra to'liq va noto'liq oilalarga bo'linadi. Oilada faqat bir ota yoki ona bo'lsa, bunday oila noto'liq oila deb ataladi.

Noto'liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar turlicha yuzaga keladi. Oilada er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli oila noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Albatta oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojia, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha'niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. «Tirik yetimlik» jamoatchilik o'rtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bog'chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlarga emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, noan'anaviy oilalar farzandlari an'anaviy oilalar farzandlariga qaraganda psixososyal muammolarga duch kelish xavfi yuqori ekanligi o'z isbotini topdi.

Ushbu natijalar an'anaviy oilalar farzandlari noan'anaviy oilalarga qaraganda kamroq ijtimoiy-emotsional va yuqori kognitiv ko'rsatkichlarga ega degan xulosaga kelgan oldingi tekshiruvlarni tasdiqladi. Bunday oilalarda voyaga yetayotgan farzandlar o'zida bolalik pozitsiyasini emas balki ota, ona yoki kotta odam pozitsiyasini shakllantiradilar. Natijada ularning psixologiyasida bir qancha buzilishlar paydo bo'ladi. Bundan tashqari noto'liq oilada

ona tomonidan katta o'g'ilga ota rolini yuklab, o'g'il pozitsiyasiga chek qo'yish ham kuzatiladi. Buning natijasi o'laroq tarbiyalanayotgan farzand bolalik davrini yashab o'tmasdan o'zida bolalik travmasini paydo qilib oladi. Noto'liq oilada voyaga yetayotgan qiz bola ham ayol va erkakning o'zaro munosabatlariga noto'g'ri yondashishi mumkin. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, "otaning yo'qligi onaning yo'qligiga nisbatan bola taraqqiyotiga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ona bolani emotsional jihatdan barcha ehtiyojlarini qondira oladi".

Onaning oiladagi roli nihoyatda kuchayib ketganligi bois, onaning ruhiyatida asablashish, taranglik xolatlari tez-tez bo'la boshlaydi. Agar er va xotinning ajrashuvi bola kattaroq yoshda sodir bo'lgan bo'lsa, bola ko'proq aziyat kechadi. U (ayniqsa o'g'il bola) nafaqat oilada o'ziga o'rnak bo'luvchi shaxsni yo'qotadi, balki tengqurlari jamiyatida ushbu xolatni tushuntira olmay, ruhan va m'nan eziladi. Bu vaziyat albatta, ona va bola munosabatlarining silliq kechmasligini ta'minlaydi. Qolaversa, ota oilaning ijtimoiy hamda iqtisodiy masalalarini yechuvchi shaxs sifatida bo'lgan bo'lsa, endi bu vazifalar onaning yelkasiga tushganligi sababli, bora-bora uning o'z farzandi bilan to'laqonli muloqotda bo'lishi uchun vaqti ham kamayib boradi, bu ham bolada o'ziga xos nevroz xolatini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bu xolat bola o'smirlik davriga kirganda ko'proq seziladi, chunki ijtimoiy foydali mehnat bilan band ona farzandini bilimlar, kasb-hunarlar olamiga to'g'ri olib kirishga imkon topmaydi. Bizning fikrimizcha, otasidan ko'ngli qolgan ona farzandini otasi izidan borishiga yo'l bermaydi ham, vaholangki, unda otaning professional layoqatli bo'lishi mumkin. Shu o'rinda ajrimlarning ham turlicha bo'lishini ta'kidlash joiz.

Masalan, er bilan xotin o'zaro kelisholmay qolib, farzandi bo'lsa, sud orqali ajrashib ketishadi. Lekin psixologiyada "affektiv ajralish" tushunchasi ham borki, uning bola ruhiyatiga ta'siri yuridik ajralishdan asoratliroq va og'iroq hisoblanadi. Bunday ajralishning psixologik mohiyati shundaki, ba'zan yuridik jihatdan birga yashayotgan er-xotinlarda ham shunday xolat kuzatiladi, ular bir birlari bilan oylab, yillab gaplashmay, bir-birlariga dushmanday yashaydilar. Yoki yuridik jihatdan ajrimni rasmiylashtirgandan keyin ham bir-birlariga nisbatan nafrat bilan yashaydilarki, ularning ba'zan farzand tufayli yoki mol-mulk musodarasini tufayli uchrashuvlaridan bola juda katta psixologik jarohat oladi. Bir-birga yov qarash qiladigan, tuhmat qiladigan, shaxsini kamsitadigan holatlarni bola bilgan va sezgan sari o'zini o'ta baxtsiz va nochor his etadi. Ayniqsa, ayrim erkaklar affektiv ajrim sharoitida boshqa ayol bilan norasmiy yashashi xolatlari, jamiyatda, boshqa odamlar orasida o'zini boshqacha (sipo, samimiy) tutib, oilada onasi bilan agressiv tutishi bola ruhiyatini jumbushga keltiradi va unda kelajak, oilaviy hayot, turmush va istiqbol to'g'risidagi tasavvurlarini batamom o'zgartirib, affektiv ustanovkalar shakllanishiga olib keladi. Nazariy tahlilimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, noto'liq oilada tarbiyalangan bolaning jamiyatdagi ijtimoiy psixologik mavqei hamda ijtimoiy tasavvurlari tizimi o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Bu ta'lim va tarbiya muassasalarida ular bilan ishlaydigan pedagog hamda murabbiylar faoliyatiga ham muayyan tasirini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "voyaga yetmagan jinoyatchilik yo'liga kirib qolgan bolalarning deyarli 75-78% noto'liq oilalarda tarbiyalangan bo'lsa, giyohvand moddalar iste'mol qiluvchi yoshlarning yarmidan ortig'i noto'liq oilalardan chiqqan" (G. Yadgarova, 2003). Bundan tashqari, XX1 asrning boshida butun jahon ilg'or kishilarini tashvishga solayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida o'z joniga qasd qilish kabi holatlar ham birinchi navbatda noto'liq oilalar vakillari ekanligi tashvishlidir.

References:

1. Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi "Oilaviy ajrimlar natijasida vujudga kelgan noto'liq oiladagi ona shaxsini farzand tarbiyasiga ta'siri". Toshkent 2023
2. Mirzaeva, S. R. (2021). Talaba valeologik ongining psixologik himoya mexanizmlari bilan determinantlashuvi. *Science and Education*, 2(Special Issue 1), 133-143.
3. Rustamovna, M. S. (2020). Psychological features of attitudes of students to their own health in conflict situations. *journal of critical reviews* (No. 17, pp. 3071- 3076). ISSN-2394-5125 VOL 7.
4. Tursunboyev, S. (2023). Boshlang 'ich ta'limda dezadaptatsiyaning psixologik xususiyatlari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 142-145.
5. Baxtiyarovich, T. S., & Mirzaeva, S. R. (2023). Dezadaptation of elementary students. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 173-175.
6. Abdurasulov J., & Pardabayeva , M. (2024). MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(6 Part 2), 73–76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>
7. Burieva, K. E., & Kamilova, Z. A. (2022). The psychology of adolescence. *Scientific progress*, 3(4), 923-929.
8. Sh.Umarova 2024. Psychological Features Of Workers And Factors Affecting Them. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 52–63.
9. X.Raximova 2024. Current Role And Requirements Of Digital Pedagogy. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 38–51.
10. 2024. Psychological Features Of Workers And Factors Affecting Them. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 52–63.
11. 2024. Current Role And Requirements Of Digital Pedagogy. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*. 2, 9 (Sep. 2024), 38–51.
12. Абдурасулов, Ж. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ.
13. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(1), 50–53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882>
14. Жўраев , Ш. ., & Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАДАГИ ИЖТИМОЙ ФИКР. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(2), 97–103. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/28151>